



**“O‘ZBEKISTON ILMIY-SINOV VA SIFAT NAZORATI MARKAZI”
DAVLAT MUASSASASI**

BUYRUG‘I

**Davlat xaridlarini amalga oshirishda tanlov (tender)
savdolarini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–684-son Qonuniga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi “Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 37-sonli va 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlariga muvofiq **buyuraman:**

1. “O‘zTest” DM davlat xaridlari bo‘yicha korporativ buyurtmachi hisoblanishi va qonun hujjatlarida belgilangan huquqlarga ega ekanligi inobatga olinsin.

2. “O‘zTest” DMning davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida moliyaviy manbalaridan oqilona foydalanish, tejamkorlik va samaradorlik, ochiqlik va shaffoflik, raqobat va xolislik, mutanosiblik, ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalarga va korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplarini ta‘minlash maqsadida, davlat xaridlari bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi xarid komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga tayinlangan yoki tegishli funksiyalar bajarilishi yuklatilgan shaxslar kiritilishi inobatga olinsin.

3. Komissiya a‘zolari o‘z faoliyatida “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarilishiga hamda tanlov (tender) savdolarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha qonun hujjatlariga amal qilinishini doimiy ravishda ta‘minlab borsinlar.

4. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, ishtirokchilarning takliflarini tanlov (tender) savdolari bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo‘yicha tekshirishni va o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini Qonuniga muvofiq jalb etish mumkinligi belgilab o‘tilsin;

*Toshkent sh.
2023 y. “23” iyun
68-son*

jalb qilingan ekspert ishchi guruhi tekshiruv natijalari bo'yicha xulosani xarid komissiyasiga ko'rib chiqishi va baholashi uchun taqdim etsin;

xarid komissiyasi tomonidan taqdim etilgan baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga xarid komissiyasining mas'ul kotibi kiritsin.

5. Bosh hisobchi B.Alimbaev va bosh mutaxassis J.Muxtorov "Elektron do'kon" va "Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion" maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan mas'ul etib tayinlansinlar.

6. Belgilab qo'yilsinki, biriktirilgan mas'ul shaxslar:

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarilishiga;

davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga va ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishiga;

bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni davlat xaridlarining hisob raqamida yetarli miqdorda mablag' mavjud bo'lganida, shuningdek moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangan taqdirdagina maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga va ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishiga **mas'ul hisoblanadilar.**

7. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning talablarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgarligi ta'kidlab o'tilsin.

8. Yuridik byuro (F.Abdullaeva) o'z vakolat doirasida davlat xaridlari bo'yicha yuzaga keladigan har qanday nizolarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etilishini ta'minlab borsin.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limi (R.Yunusov) tanlov (tender) savdolarini kuzatuvini amalga oshirish jarayonida xodimlar tomonidan korrupsiya holatlarini oldini olishini va yo'l qo'yilmasligini ta'minlasin.

10. Mazkur buyruq joriy yilning 23-iyunidan amaliyotga tadbiq etilsin.

11. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan "O'zTest" DMning 2022-yil 12-apreldagi 46-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

12. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor v.b.



J. Shukurov

Kiritildi:

Bosh mutaxassis _____ J. Muxtorov

Kelishildi:

Direktor o'z/b _____ F. Madumarov

Bosh buxgalter _____ B. Alimbaev

Bo'lim boshlig'i _____ J. Abduqodirov

Yuridik byuro
boshlig'i _____ F. Abdullaeva

Tanishtirildilar:

_____ M. Xayridinov

_____ Sh. Samaritdinov

_____ A. Xakimov

_____ I. Mamatqulov

_____ R. Yunusov

**“O‘zTest” DM tomonidan tanlov (tender) savdolarini
tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasi
TARKIBI**

Shukurov J.N.	-	Direktor, <i>komissiya raisi</i>
(Vakant)	-	Direktor o‘rinbosari, <i>komissiya a‘zosi</i>
Madumarov F.T.	-	Direktor o‘rinbosari, <i>komissiya a‘zosi</i>
Alimbaev B.A.	-	Bosh hisobchi, <i>komissiya a‘zosi</i>
Abduqodirov J.A.	-	Sinov laboratoriyalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, <i>komissiya a‘zosi</i>
Xayridinov M.X.	-	Sertifikatlashtirish organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, <i>komissiya a‘zosi</i>
Mamatqulov I.U.	-	Moddiy ta‘minot va transport ho‘jalik sho‘basi bosh muxandisi, <i>komissiya a‘zosi</i>
Lavozimi bo‘yicha	-	Tender yoki tanlov e‘lon qilgan tizim tarmoq (bo‘lim) rahbari, <i>komissiya a‘zosi</i>
Lavozimi bo‘yicha	-	Tashabbuskor tarmoq (bo‘lim) xodimi, <i>komissiya a‘zosi</i>
Muxtorov J.A.	-	Bosh mutaxassis, komissiya kotibi (ovoz berish huquqsiz)
Yunusov R.Z.	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo‘limi boshlig‘i, tanlov (tender) savdolarining kuzatuvchisi

Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlanganlar yoxud tegishli vazifa bajarilishi yuklatilgan shaxslar kiritiladi.